

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2023 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 3

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Üşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Ushenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Abdulhay Sobirov

O'zbek tilining buguni va kelajagi bo'yicha mulohazalar.....6

Marhabo Umurzoqova

Lisoniy shaxs tushunchasi va uning lingvistik talqini.....17

Sadagat Abbasova

Turli tillarda ma'nosiz ovoz almashish yo'nalishlari.....31

Adabiyotshunoslik

Sebahat Deniz

Büyük Türk Hakanı Babür'ün ve Neslinin Türk Edebiyatının
Gelişmesindeki Rolü.....43

Ilyos Ismoilov

Iskandarnomalarda yunon donishmandlari obrazi.....58

Nodira Xolikova

O'zbek jadid she'riyatida ayol obrazining ijtimoiy-estetik omillari
(Cho'lpon va Hamza ijodi misolida).....77

Fan. Ta'lim. Metodika

Vahobjon Nazarov

Fransuz tili darslarida multimedia vositalari: turlari va
texnologiyalari.....94

Sotsiologiya. Psixologiya

Komil Kalanov

O'zbek tilidagi duolarda muqaddaslik timsoli ifodasining
sotsiologik talqini.....108

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Somoniylar sulolasining huquqiy maqomi.....132

CONTENT

Linguistics

Abdulhay Sobirov

Reflections on the Present and Future of the Uzbek Language.....6

Marhabo Umurzakava

The Concept of Linguistic Personality and its Linguistic Interpretation...17

Sadagat Abbasova

Directions of Voice Substitutions Without Meaning in
Different Languages.....31

Literature

Sebahat Deniz

The Role of the Great Turkish Khan Babur and his Generation
in the Development of Turkish Literature.....43

Ilyos Ismoilov

The image of Greek Sages in Iskandarnames.....58

Nodira Kholikova

Socio-Aesthetic Factors of the Female image in Uzbek Jadid Poetry
(using the example of poems Chulpan and Hamza).....77

Science. Education. Methodology

Vahobjon Nazarov

Multimedia tools in French Language Classes: Types and
Technologies.....94

Sociology. Psychology

Komil Kalanov

Sociological Interpretation of the Expression of the Symbol
of Holiness in Blessings in the Uzbek language.....108

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

Legal Status of the Samanids Dynasty.....132

**SOTSILOGIYA. PSIXOLOGIYA
SOCIOLOGY. PSYCHOLOGY****O'zbek tilidagi duolarda muqaddaslik
timsoli ifodasining sotsiologik talqini**Komil Kalanov¹**Abstrakt**

Maqolada muallif diniy munosabatlarda alohida o'rin tutadigan "duo"lar timsolini "muqaddaslik" kategoriyasi orqali qiyosiy tahlil etadi. Muammoni yoritishda sotsiologik nazariy-metodologik konsepsiyalar bevosita dala tadqiqot natijalarining ma'lumotlari bilan bayon qilingan. Shuningdek, duolarni muqaddaslikning davriy ko'rsatkichlardagi ijtimoiy xususiyatlari va uning axborotlashgan jamiyatga transformatsiyalashuvi sotsiologiya pozitsiyasidan turib tahlil etilgan. Duolar "muqaddaslik kodi" sifatida ko'tarilar ekan, muallif uning tadqiqot obyekti nafaqat diniy mazmun, balki falsafiy, antropologik, estetik, psixologik, lingvistik va tarixiy xususiyatlari bilan muammo sifatida axborotlashgan zamonaviy jamiyatga tatbiq etish masalasini ilgari suradi. Muammoning nazariy-metodologik asosini ramziy interaksionizm, strukturalizm va tizimli yondashuvlar nazariyalari tashkil etadi. Umuman olganda, duolarning o'zgaruvchan jamiyatda muqaddaslikning ijtimoiy timsoli ko'rinishida an'anaviylikdan zamonaviylikka transformatsiyalashib borishidagi sotsiomadaniy jihatlari kompleks mulohaza uchun havola etilgan.

Kalit so'zlar: *duolar, muqaddaslik, qadriyatlar mo'ljali, folklor, tafakkur, ong, tuyg'u, din sotsiologiyasi, mistika, afsona, qadriyat, madaniyat, marosimlar.*

Kirish

So'nggi 20 yil ichida o'zbek jamiyatshunoslari diniy munosabatlarning transformatsiyalashuvidagi ijtimoiy-madaniy xususiyatlar to'g'risida tez-tez yozadigan bo'ldilar. Biz ushbu maqolamizda duolarning muqaddaslik timsoli sifatidagi miqdoriy va sifatiy tahliliga sotsiolog pozitsiyasidan to'xtalib o'tishni lozim topdik.

¹Kalanov Komil Kulaxmatovich – sotsiologiya fanlari nomzodi, professor, O'zbekiston Milliy universiteti.

E-pochta: komiljon@yandex.ru

ORCID ID: 0009-0009-2344-1814

Iqtibos uchun: Kalonov, K. K. 2023. "O'zbek tilidagi duolarda muqaddaslik timsoli ifodasining sotsiologik talqini". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 108 – 131.

Muammoni yoritar ekanmiz, ilgari surilgan mavzu yuzasidan o'zgaruvchan jamiyatdagi ijtimoiy hodisalarning o'zagi hisoblangan "qadriyatlar mo'ljali", uning yoshlar hayotida tutgan o'zni va ahamiyatiga to'xtalib o'tishni muhim, deb hisobladik. Har qanday madaniyatning jamiyatdagi o'rnini baholashda, uni alohida ahamiyat kasb etuvchi inson hayotiga bevosita bog'liq sotsial xotiraning roli bilan qiyoslasa bo'ladi. O'zgacha ta'riflaydigan bo'lsak, ijtimoiy-madaniyat o'zida kishilarning o'tmish xotiralari bilan bog'liq an'analarni bugungi kun talablari bilan qamrab oladi. Shuningdek, jamiyat a'zolaridan o'zini o'rab turgan atrof-muhitni qanday qabul qilish, baholash va tasvirlashni talab etib, qaysidir ma'noda uning xulq-atvorini shakllantiradi. Demak, madaniyat bir tomondan kishilarning o'zlari tomonidan yaratilgan an'analari orqali shakllanib borsa, ikkinchidan, u sotsiumda a'zolarga nisbatan "qanday bo'lish kerakligi va lozimligi" to'g'risidagi munosabatlarni singdirib boradi. Duolardagi muqaddaslik timsolining bugungi mavqeyini shu asosda baholashni lozim topdik.

Asosiy qism

Dunyoqarash sifatida "muqaddaslik" kategoriyasi o'zgaruvchan bo'lmagan qadriyat hisoblanadi. Shu bois unga ulug'vorlik ahamiyati bilan qaraladi. Uning timsoli borliqning qaysidir ma'nodagi muhim tavsifini o'zida ifodalagandek gavdalantiriladi. Kishiga avval muqaddaslikning holatini his ettirib, keyin nigoh orqali jismini payqashga, yoki avval jismni paypaslab ko'rib, so'ngra ruhiy his etishga chorlanadi. Falsafiy nuqtayi nazardan olib qaralsa, uning ontologik va gnoseologik; sotsiologik jihatdan: fenomenologik va aksiologik tasvirini berish mumkin. Ontologik holatda muqaddaslik – "umumiy borliqdan aniq reallik sari" borishi belgilansa, gnoseologiyada u – "yetib bo'lmaydigan" (sirli) darajadagi bilimlar ifodasini beradi. Fenomenologik sotsiologiya muqaddaslikni "hayrat" bilan tasvirlasa, aksiologiya – "mutlaqlik", ya'ni chuqur anglangan mushohada bilan aks ettiradi.

Maqolada ilgari surilgan mavzuning ilmiy talqini ratsional va irratsional jihatlarni o'zida ifodalaganligi uchun, ilmiy tahlilni ushbu atamalarning sotsiologik xususiyatlaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Sotsiologlar, xususan, din sotsiologiyasi bo'yicha mutaxassislar har bir tadqiqot ishini olib borayotganlarida muammoni tanqidiy mushohada yoki ilmiy dalillarga tayanib o'rganadilar. Sotsiolog tadqiqot dasturini ishlab chiqar ekan, o'ziga o'zi savol bilan murojaat qiladi: "Ushbu muammo qachon paydo bo'lgan?", "Uni

kim, qayerda, qanday maqsadlarda o'rgangan?", "Tadqiqotchi muammoni o'rganish jarayonida o'zi voqea ishtirokchisi bo'lganmi yoki kimlardandir (voqea guvohlari, xotiralar) eshitib yozganmi, shu kungacha yozilgan kitoblarga tayanib xulosa chiqarganmi?", "Tadqiqot obyektni tanlashda yanglishmaganmi, o'zi bevosita dala tadqiqotlarida qatnashganmi, qiyosiy tahlil bo'lganmi yoki bitta subyekt bilan cheklanganmi?", "Tadqiqot lokal (mahalliy) xarakterdami, u hududiy, mintaqaviy, olamshumul xususiyatlar bilan ifodalanganmi?" va h. k.

"Ratsionallik" – oddiy tushuntirilganda, hayotga bo'lgan munosabatda va dunyoni anglashda aql bilan mushohada yuritish ma'nosini beradi. "Ratsionallik deganda *"aql"*ni, irratsionallikda esa *"mistika"*, ya'ni yashirin, sirli hodisalar tushuniladi" [OTTO 2008, 105.]. Tadqiqotchilar *"irratsionallik"*ni turli masalalardan qidirishga harakat qilishadi. Ammo ularning ko'pchiligi ushbu atamaning ma'nosini to'liq ifodalanmagan yoki anglanmagan holda, istalgan tomonga talqin qilib foydalanadilar. Aslida, *irratsionallik*ni dalillar bilan va qonuniy asosda; empirik va ratsional tarzda; tasodifiy va zaruriy; psixologik va transsendent (hissiy tajribadan tashqariga chiqib ketish); hukmronlik, ta'sir o'tkazish va o'zboshimchalik; jozibadorlik, instinktlar va ong ostiga joylashgan yovuz niyatlilik va ehtiyotkorlik; mulohazakorlik va oqilona rejalar; qalbdagi chuqur hissiyotlar va insonparvarlik; his etish, idrok qilish, bashorat belgilari va sirli yashirin ichki tuyg'u bilan ifodalash mumkin [OTTO 2008, 102-103]. Qisqasi, har qanday irratsionallikda ratsionallik o'z ifodasini topganidek, mavjud ratsionallikda ham irratsionallik o'z ifodasini topadi. Shu bois biz o'z tadqiqot ishlarimizda ratsionallik bilan irratsionallikni bir-biriga qarshi qo'yish, yoki butunlay ajratib tashlash fikridan yiroqmiz. Biz tomonimizdan ilgari surilayotgan *muqaddaslik*da aynan shu holat namoyon bo'lib, uni boshqa ijtimoiy masalalarda ham sinab ko'rish mumkin.

Ijtimoiy tadqiqotlarda voqe'likning bayonini qiyoslash uchun 100 yil oraliqdagi "sikl" (aylanish masofasi) o'rganilishi asos qilib olinadi. Shu bois O'zbekiston sharoitidagi so'nggi bir asr mobaynida ijtimoiy-diniy vaziyat, undagi o'zaro munosabat va aloqalardagi transformatsiyalashuvni olib qaraydigan bo'lsak, bir necha bor ratsionallik irratsionallikka va o'z navbatida irratsionallik ratsionalikka tomon o'zgarganining shohidi bo'lamiz. Bugungi avlod o'zidan avvalgi avlodlar, xususan, ota-onalari, ayrimlar bobo-buvilarining "noma'lum askar" qabri oldida saf tizib, butun vujudi bilan iqrorlikka asoslangan irratsionallikni, shu davrda

qurilish materiallari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari saqlanadigan omborga aylantirilgan masjid-madrasalarning aql va mushohada bilan shakllantirilgan qarorlarini, yoki XX asrning 50-70-yillarida ziyoratgoh va qadamjolarini eskilik sarqiti sifatida tugatish uchun chiqarilgan diniy fatvolardan ko'p holatlarda bexabar¹, albatta.

R.Ottoning *"ratsional"* va *"irratsional"* holatlar to'g'risidagi qarashlarini tahlil etar ekanmiz, uning diniy munosabatlarda irratsionallikka yondashuvi muhimdir. "Dinda irratsional holatlarning doimiy mavjudligi va bardavom turishi, uni ratsionallikka murojaat qilishdan saqlaydi. Shuningdek, dinning o'zida mavjud ratsional holatlarni saqlashi fanatizm va mistikaga og'ib ketishdan asraydi. Bu esa o'z navbatida madaniy va insoniylikka asoslangan diniy munosabatlarni kuchaytiradi" [Otto 2008, 217-218]. Buni oddiy tilda "oltin masofa" saqlash, deb tushunish mumkin. Markaziy Osiyo, birinchi navbatda, O'zbekiston sharoitida *"oltin masofa"* qoidasiga amal qilish muhim, deb hisoblaymiz. Aholining turmush va tafakkur tarzi hududlar miqyosida bir joydan ikkinchi joyga o'tib borgani sari o'zgaruvchanligini, shaharlar bilan qishloqlar o'rtasida farqlarning kattaligi, poytaxt bilan viloyat markazlaridagi infratuzilmaviy xizmatlardagi farqlar ijtimoiy-diniy munosabatlarda ratsional va irratsional yondashuvlarda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yish kerak emasligini talab etadi.

Sotsiologiya, falsafa, psixologiya, antropologiyaga oid ilmiy adabiyot, tarixiy manbalarda din va diniy munosabatlarning o'zagi hisoblangan *"muqaddaslik"* mavzusi botiniy va zohiriy tafakkurga asoslangan munozarali bahslarga sabab bo'lib kelgan. *"Muqaddaslik"* so'zi *sacer* (Xudoga bag'ishlamoq) va *sanktus* (hurmatga loyiq, ulug'vorlik, yuksaklik) ma'nolarini anglatib, yaratuvchi, ya'ni Xudoning yuksak ahamiyatini ko'rsatish bilan bog'liqdir. *"Muqaddas"* atamasi esa – *"ilohiylik"* so'zining muqobili sifatida keladi. *"Muqaddaslik"* atamasining etimologiyasi lotinda *"alohida"*, *"uzoqlashtirilgan"* ma'nolarini anglatuvchi *sacer* so'ziga borib taqaladi. Dastavval unga nisbatan ko'p sonli diniy ta'qiqlar – *tabu* mavjud bo'lgan; o'ziga yomon narsalarni yuqtirib olmaslik uchun tegish mumkin bo'lmagan; qo'rqinch va nafratga sababchi narsalar

¹Fatvolarda mahalliy "avliyolar" qabrlarini ziyorat qilish, xususan, ziyoratchilarning qabrlar oldida duo o'qishlari, mozorlarga tug'lar o'rnatish va sham yoqish, avliyo" ruhidan madad tilash, yig'lash, kasallarni tuzatish uchun dam solish va boshqalar shariatga zid deb e'lon qilindi (Fatvolar 1950, 1952, 1957, 1959, 1960-1966-yillarda chiqarilgan). Undagi ratsionallik keyinchalik, 70-yillarning oxiri, 80-yillarning boshlaridagi Ra'no Abdullayeva nomi bilan bog'liq kompaniyada irratsional tuyg'u va tafakkurga sabablardan biri sifatida asos qilib olingan bo'lishi mumkin.

“*muqaddaslik*” sifatida ifodalangan. Ibtidoiy insonning “muqaddas” narsalarga nisbatan dastlabki hissiy ta’siri ko‘pincha salbiy bo‘lgan [Ильченко, Шельюто 2016, 86-87].

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida “*muqaddaslik*” atamasi ilk marotaba XX asr boshlarida *neokantizm* vakili bo‘lgan nemis faylasufi V.Vindelband tomonidan (1848-1915) qo‘llanilgan. U o‘z maqolalaridan birida *muqaddaslikka* ta’rif berar ekan, uni diniy omil, aniqrog‘i *ziyoratgohlar* bilan bog‘lab ko‘rsatadi: “*Ziyoratgoh* – bu transsendent (muqaddas – K.K.) voqelik sifatida qabul qilinuvchi haqiqiylik va go‘zallikni me’yoriy tarzda anglash demakdir” [Виндельбанд 1995, 20]. V.Vindelband ma’naviyat muhitini *muqaddaslashtirishda* I.Kant izidan borgan holda *muqaddaslik* tushunchasini me’yoriy tafakkurning bir ko‘rinishi sifatidagi *vijdon* kategoriyasi deb ifodalaydi. U *ziyoratgohlar* timsolida *muqaddaslikni* ifodalar ekan, avvalambor, unda mujassam bo‘lgan *ilohiy* tafakkurdagi me’yorlarni umumiy ijtimoiy kuch (quvvat)ga ega bo‘lishligi, ushbu kuchning shaxsiy tajribadan yuqori bo‘lgan aloqalardan ustunligi va ijtimoiy-ruhiy hayotning ma’naviy asosini ochib beruvchi metafizik voqelik bilan bog‘laydi.

Muqaddaslik fanda diniy va dunyoviy munosabatlarning negizida kelib, jamiyat va undagi ijtimoiy munosabatlarning birlamchi obykti sifatida baholanadi. Fransuz mutafakkir sotsiologi E.Dyurkgeym diniy va dunyoviylik o‘rtasidagi farqni bir tomondan jamoaviylik, abadiylik, ruhiy kayfiyat, umumiylik va ikkinchi tomondan esa yakka tartiblilik, vaqtinchalik jarayon, alohidalikka xos sifatlarda talqin qiladi [Осипова 1977, 216]. Shunday bo‘lsa-da, *muqaddaslik* diniy atamashunoslikdan ko‘ra ko‘proq ilmiylikka mos tushadi va u diniy e’tiqod, mifologiya (asotirlar)ning ichki (botiniy) xususiyatlarini tasvirlashda foydalaniladi. *Muqaddaslikka* olamning yaratuvchisi va ilohiyot bilan bog‘liq voqea-hodisalarni bayon etishda, Xudo “yo‘li”da amalga oshiriladigan marosim (ritual)lar bajarilayotganda, shuningdek, diniy obyekt, subyekt va predmetlarni aks ettiradigan hodisalarga to‘xtalganda yoki munosabat bildirilganda (masalan, muqaddas kitoblar, muqaddas joylar, muqaddas avlodlar (“qutlug‘ xonadon” – K.K.), muqaddas olov va shu kabilar)) murojaat qilinadi. O‘zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyeva “*ayol*” timsolini muqaddaslik bilan ifodalaydi. Muqaddaslik – bu “*o‘zga*”, “*boshqa*” to‘g‘risidagi tasavvurdir. Inson *muqaddaslikni* atrofdagi muallaq begonalik uchun o‘zgacha mazmunda ta’kidlab, qayta yaratadi, shakllantiradi yoki unga alohida urg‘u beradi. Talaffuzda u ko‘chma ma’noda kelsa-da, ijtimoiy-ruhiy kechinma-

larda “alohida ahamiyatga ega, dahlsiz, noyob” kabi sifatlarni namoyon etadi.

Bizningcha, dunyoqarash, xususan diniy va dunyoviy dunyoqarash to'g'risida fikr yuritganda bir tomonlamalikdan chekinish kerak bo'ladi. Negaki, qaysi dunyoqarash afzal, qaysisi jamiyat manfaatlariga zid degan savol atrofida muhohasa qilish tadqiqotchining chegaralanishiga olib keladi, xolos. Shuning uchun biz bu ikki jihatni jamiyat hayotida ham ijobiy, ham salbiy tomonlari o'ziga xos ravishda kechadi, deb bimalol mulohaza yuritishga haqlimiz. Shu bilan birgalikda diniy va dunyoviy dunyoqarash to'g'risida fikr bildirganimizda, ular bir-birlarini to'ldirib, tuzatib borishini ham e'tirof etish lozim bo'ladi.

Zamonaviy ijtimoiy fanlar (xususan, sotsiologiya) va dinshunoslikka oid adabiyotlarda muqaddaslikning “muqaddas” va “ilohiy” tushunchalari mavjud. “Ilohiy” – bu birinchi navbatda “Yaratuvchi”, yoki “Ijodkor” bilan bog'liq bo'lgan o'ta murakkab diniy ong. “Muqaddas” atamasi ham ko'proq diniy dunyoqarashda mujassamlashsa-da, u ijtimoiy-psixologik omil sifatida ham nisbatan qo'llaniladi. Muqaddaslik nafaqat diniy tafakkurga, balki noodatiy tafakkurga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Uning diqqat markazida “Yaratuvchi”ni tasavvur qilishdan tashqari inson, jamiyat va hattoki davlatga bo'lgan ijtimoiy-madaniy yoki siyosiy jarayonlarni ifodalovchi hodisa sifatida qarash mumkin. Diniy dunyoqarashda muqaddaslik “tuyg'u” sifatida jamlanadi va mohiyatiga ko'ra inson mushohadasida “e'tiqod” obyekti sifatida o'rin egallaydi.

Muqaddaslikning mavjudligiga ishonch paydo qilish va unga ulug'vorlik paydo qilish, dinning asosiy mohiyati, motivlaridan biri sanaladi. Ayniqsa insonda dindorlik tafakkuri qanchalik yuqori bo'lsa, tafakkurdagi “muqaddaslik” mushohadasida ijtimoiy hayotda yuqori ehtiromning belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Ammo, uning ikkinchi tomoni ham bor bo'lib, *tabu* shaklida namoyon bo'ladi. “Biz uchun *tabu*ning ma'nosi ikki qarama-qarshi tarmoqqa bo'linadi. Bir tomondan, u “muqaddas”, “muqaddaslashtirilgan” ma'nosini anglatadi, ikkinchi tomondan – “qo'rqinchli”, “xavfli”, “ta'qiqlangan” va hatoki “jirkanch” ma'nolarini anglatadi. Ehtiyotkorlikni talab etuvchi nimalardir *tabu* bilan bog'liq, aslida u taqiq va cheklovlarida namoyon bo'ladi. “Muqaddas qo'rquv” so'z iborasi ham ko'pincha *tabu* ma'nosiga mos keladi” [Редклифф-Браун 2001, 386]. “Oila va nikoh”, “sevgi-muhabbat” (“Yaratuvchi”ga, Piru-murshid (ustoz, avliyo)ga, Vatanga, ota-onaga va shu kabilar), “qasamyod”

kabi ijtimoiy munosabatlarda *tabuning* ijobiy sifatlari uchraydi. Shunday bo'lsa-da, "*muqaddaslik*"da oilaviy ajrimlar, muhabbatga xiyonat, qasamni buzish kabilar har qadamda uchraydi.

XX asr aksar mamlakatlarda totalitar boshqaruv tizimiga asoslangan davlatlarni shakllantirar ekan, ushbu asr tarixda "*siyosiy sig'inish*"lar va uning obyektiga aylangan "*muqaddaslashtirilgan*", sun'iy xarizma (shaxs)larni paydo qildi [Xaʼbermac 2016, 214]. "*Muqaddaslik*"ni tahlil etarkan, nemis sotsiologi Yurgen Xabermas uning ibtidosini nafaqat din, ma'naviyat, arxitektura, san'at yoki joy bilan, balki o'zida "g'ayritabiiy" sifatlar taqdim qilingan davlat hukumati bilan bog'laydi. Y.Xabermas muqaddaslikni ma'naviydiniy qadriyatlardan ko'ra, ko'proq ijtimoiy-siyosiy tabiatga ega bo'lgan qadriyatlar bilan bog'lanayotgan ijtimoiy genoteistik turi ham mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Redkliff-Braun ilgari surgan "*muqaddas qo'rquv*" ham totalitar jamiyatlarga xos xususiyat sanaladi. Odamlar sun'iy shakllantirilgan "xarizma"ning adolatsiz faoliyatini anglasalar-da, ichki tahlika tufayli undan "ilohiy shaxs"ni yasashga majbur bo'ladilar.

Umuman olganda, lotin tilida ifodalanib kelingan "*muqaddaslik*" o'zining "*sakral*" so'zi bilan bog'liq shaklda uchrovchi izohini hind-yevropa tilidagi "*sak*" o'zagi bilan bog'laydi. "*Sak*" o'zagining hind-yevropa dunyoqarashida taqdim qilingan dastlabki mazmuni taqdim qilinganda, u "koinotga muvofiqlik", "narsalarning fundamental tuzilmasi", "mavjud voqe'likni anglash" kabi hodisalarga bog'lanish imkonini beradi. Qadimgi hind-yevropa dinlari kohinlari jamiyatni aynan "*muqaddaslik*" asoslari ustiga qurishga intilganlar. O'sha zamonlardagi hind-yevropa tafakkurida "*muqaddaslik*" mavjudlikning asosini tashkil qiluvchi voqe'likni tashkil etgan.

"*Muqaddaslik*" tushunchasi tahlil etilsa, uning dunyo dinlaridan ancha qadimiy ibora ekanligini his etish qiyin emas. Ushbu tushunchaga o'xshash iboralar turli etnoslarning tillarida uchraydi, ammo mazmunan e'tibor qilinsa, uning o'zagi hind-yevropa asosiga borib taqaladi: "*svet*" – pravoslav slavyan tilida, "*sventas*" – boltiq bo'yi xalqlari tilida, "*spenta*" – forsiy-eron tillarida qo'llaniladi [Топоров 1995, 8]. Keltirib o'tilgan leksik misollarda bir jihatga e'tibor qarataish lozim, ya'ni "*muqaddaslik*" hindlar va xristianlikka mansub aholi orasida boshqalarga nisbatan ko'p qo'llaniladi. Eng oddiy tadqiqotchi ham hind yoki o'rta asr xristianligiga oid kinofilmlarni tomosha qilib, uni kontent tahlil etsa, butun film jarayonida ushbu atamaga tez-tez murojaatlar bo'lishini kuzatadi. Turli jabhalarda

“muqaddaslik” hajmining ortib borishi, ijtimoiy tizimni belgilovchi hodisalarning tushunish an’anasi va birlashtiruvchi bo’g’inni tashkil etadi.

Fikrimizcha, “muqaddaslik” tuyg’usiga bo’lgan intilish hajmining ortib borishi alohida hayot hosilasini tashkil etuvchi mezonlar diniy hodisalardan tashqari “inson” (ajdod, ota, ayol, ona), “joy” (Vatan, o’lka, makon), “timsol” (suv, jonzot, o’simlik, tosh), “voqelik” (urush, jang), “xarizma” (ulug’vorlik, shaxs) va shu kabilar. K.K.)ni hosil qiluvchi kuchlarning harakati sifatida, obrazlar, ramz (belgi)ni ifodalaydi. “Muqaddaslik” hodisasini sotsiologik jihatdan o’rganish zamonaviy insoniyatning nafaqat ijtimoiy-psixologik, balki boshqa muammolarini ham anglashda muhim va zarur.

Rossiyalik tadqiqotchi V.Toporovning ta’kidlashicha, “muqaddas joy”, “muqaddas predmet”, “muqaddas inson” kabi hodisalar atrofida yangicha muhitni shakllantiruvchi “nuqta”lar paydo bo’lib, ular odamlarga foniy dunyodan o’tib ketgan ko’plab ajdodlarning g’oya va hissiyotlarini ma’lum sohalarda shakllanishiga xizmat qiladi. Yangi voqe’lik muqaddaslik hissiyoti bilan vujudga keladi [Топоров 1995, 10]. Biz ushbu hodisani «muqaddaslik kodi» sifatida talqin etishni taklif etamiz. Muqaddaslikning negizini xalqlarning “milliy kodi” yoki “madaniyat kodi” tashkil etishi mumkin. *Madaniy kod* – bu xalqning asrlar mobaynidagi tarixiy rivojlanishi davomida tizimlashgan identiklik, mentalitet, ma’naviy-axloqiy ustanovkalar, ijtimoiy xarakterni namoyon etuvchi o’ziga xos sayqallangan arxetip, namuna va qadriyatlarni namoyon etadi. Aynan xalqning asosiy qadriyatlarini tashkil etuvchi milliy psixologiya, hayot yo’li va xulq-atvori madaniy kodni ifodalaydi [Бабочов 2023]. Afsuski, bugungi kunda mahalliy sotsiologik tadqiqotlarda yetarlicha “milliy” yoki “etnik” kod mavzusida ilmiy izlanishlarga e’tibor qaratilmayapti.

“Muqaddaslik” kodi vaqt va makon doirasida namoyon bo’ladi. Muqaddas makonning namoyon bo’lishi “boshlang’ich nuqta”ni aniqlash, betartib bir turg’unlikda o’z yo’nalishini anglab olish, “dunyoning yaralishi” va unda real hayot kechirish imkonini beruvchi ta’limotlar to’g’risidagi bahs-munozaralarga bog’liq. Albatta, an’anaviy jamiyatlarda diniy va ilmiy munozaralar juda yuqori bahslarga borib taqalmaydi. Chunki an’anaviylikda “vaqt” va “makon” ko’lami sotsium uchun bir tomonlama aniq belgilab qo’yiladi. Uning doirasini “yorib” chiqish, muallaq makonga tushib qolish bilan teng. Millati rumin bo’lgan amerikalik sotsiolog M.Eliadening so’zlariga ko’ra: “Dindor inson hamma vaqt “Olamning markazi”da joylashishga intiladi. Yashamoq uchun har kim o’z dunyosini

yaratish lozim. Biroq, yaratilgan hech bir dunyo o'z-o'zidan betartib, bir turdagi va nisbiy makonda tug'ilmaydi. Makondagi boshlang'ich nuqta, ya'ni "Markaz"ning aniqlab berishi orqali biz kutgan, yoki to'qnash kelgan Olam (muqaddaslik) yaraladi" [Элиаде 1994, 23]. Teologik fanlarda "*muqaddaslik*" yoki "*Olamni muqaddaslashtirish*" yagona "Yaratuvchi"ga itoat qilishni anglatadi. Buning ramzi sifatida ilohiylikni "*tabarruk*" qilish marosimi namoyon bo'ladi. Mazkur marosimni amalga oshirish natijasida kundalik hayot dunyoviylikka aylanib, ilohiy mazmun kasb etadi. Muqaddaslik bunda ma'naviy va ruhiy olamga xos tarkibiy qismlarni qamrab oladi.

Diniy e'tiqodlar sodda yoki murakkabligidan qat'i nazar, aynan bir jihatga ega. E'tiqod odamlar tasavvuridagi real (mavjud) va ideal (mukammal) hodisalarni ikki jihatga: a) diniy va b) dunyoviy atamalar yordamida to'laqonli ravishda ifodalanuvchi, ikki qarama-qarshi turga ajratuvchi tasnifga ajratadi. Biri o'zida jamiki muqaddas narsalarni jamlasa, boshqasi esa dunyoga oid bo'lgan narsalarni qamrab oladi. E'tiqodga oid tafakkurning o'ziga xos jihati aynan shundan iborat. Har qanday e'tiqod va unda mujassam bo'lgan afsona, aqida va rivoyatlar muqaddas hodisalarning tabiatini, ularning ijtimoiy-psixologik xususiyat va imkoniyatlarini, tarixi bilan bog'liq o'zaro munosabatlarni dunyoviylik tabiatini ifodalovchi tasavvur yoki tushunchalar tizimiga jamlaydi. Lekin muqaddas hodisalar sifatidagi omillarni faqat Xudolar yoki Ruhlar-ga oid deb tushunmaslik lozim; bunda, tog' cho'qqisi, ulkan daraxt, qadimiy buloq, xarsang tosh, qurigan daraxt tanasi, eski muhtasham uy va shu kabilarni, xullas, ta'kidlash mumkinki, har qanday narsa va hodisa muqaddas bo'lishi mumkin [Дюркгейм 1998, 217]. Bizningcha, mahalliy tadqiqot ishlarimizda mumtoz sotsiologiya-ning buyuk nazariyotchisi Emil Dyurkgeymning bildirgan ushbu fikr-mulohazalari doirasida ratsional va irratsional yondashuvni bugungi kun doirasida ko'rib chiqishimiz, qaysidir xususiyatlar irratsional ekan, uni ratsionalga tomon burish – ratsionallikda esa butkul chuqurlashib ketishdan ehtiyot bo'lish lozim, degan xulosaga kelish kerak.

Insonning ma'naviy dunyosini shakllantirish va uning oliy ruhiy vazifalarini rivojlantirishning eng muhim mediator *"afsona"* hisoblanadi. Muqaddaslikni tadqiq etishga oid izlanishlarda asotir (mif) va afsonalarning muhim mediatorlari: "*so'z*", "*belgi*" va "*ramz*"lar o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Afsonaga xos muhim xususiyat "*ramziylik*"dir. Ramziylik so'z yoki boshqa bir belgilar yordamida ifodalanishi mumkin. Ingliz antropologi

Bronislav Malinovskiy ta'kidlashicha, "so'z (logos) – bir tomondan afsonalar orqali qabilaning muqaddas dostonlari orqali va boshqa tomondan harakatlarda ifodalanadigan marosimlar bilan ma'naviy qarashlarni, ijtimoiy guruh va tashkilotlarni, eng so'ngida amaliy faoliyat bilan ruhiyat o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni vujudga keltiradi" [Малиновский 1998, 94]. Dunyo globallashib borar ekan, zamonaviy inson endi istalgan vaqtda dunyoning istalgan nuqtasiga borish imkoniga ega bo'ldi. Tadqiqotlarimiz doirasida biz Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Ozarbayjon, Turkiya kabi mamlakatlarning muqaddas joylariga safar qilish imkoniga ega bo'ldik. E'tiqodning ramziy qismlaridagi farqlarni kuzatar ekanmiz, joylar (tub aholi istiqomat qilishidan kelib chiqib) bilan bog'liq "noyob" ramziy belgilarda kishining o'zini "haq" ekanligini isbotlovchi o'jarlikdan ko'ra "ehtiyotkorlik" ustiga qurilgan "xalq diplomatiyasi" (irratsionallik) muhim o'rin tutishiga ko'p marta amin bo'ldik.

Fransuz antropologi Klod Levi-Strossning ta'kidlashicha, "afsona" ratsionalistik mazmun kasb etadi. Mifologik tafakkur o'z xususiyatiga ko'ra mavjudligining boshidanoq ratsional mazmun kasb etgan. Levi-Strossning fikriga ko'ra, afsona jamiyatni tabaqalashtirish va qatlamlarga ajralib borish jarayonlarini tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lgan va "neolitik texnik inqilob" uchun intellektual asos bo'lib xizmat qilgan: "Biz ko'pincha haqiqiy hayotdan uzoq deb o'ylagan, xayollarimiz harakatining natijasi hisoblangan voqelikka teskari o'girilib olgan afsona va marosimlarning asosiy maqsadiga kam e'tibor qilamiz. Ularning vazifasi – dunyo haqidagi hissiy ma'lumotlarni irratsionallikka oid atamalarda oqilona qo'llash, tabiatni mushohadaga asoslangan kuzatishlar asnosida ilmiy tadqiqotlar in'om qilgan kashfiyotlarga moslashtirish va refleksiya usullarining qoldiq shakllarini bizning kunlarimizga qadar saqlab qolishdan iborat. Aniq dalillarga asoslangan ilm-fan matematik va tabiiy fanlar erishgan natijalarga bog'lanishi lozim. Biroq uning natijalari ijtimoiylikka nisbatan ma'lum darajada haqiqiy emas. Ko'p narsalardan o'n ming yillar avval paydo bo'lgan afsona va marosimlar bugungi kunda ham xuddi avvalgidek sivilizatsiyamiz substratini tashkil etmoqda" [Otto 1923, 126].

Muqaddaslik diniy-ilohiy dunyoqarash sifatida o'ziga xos xususiyatlari bilan hinduizm, iudaizm, buddizm, xristianlik, islomga e'tiqod qiluvchi insonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoga keng tarqalgan har bir dinning o'z muqaddas shaharlari, muqaddas kitoblari, muqaddas shaxslari, qolaversa, muqaddas taomlaridan

tortib, muqaddas kiyimlari va duolarigacha mavjud. *Muqaddaslik kodi* ijtimoiy, psixologik, tarixiy, diniy, axloqiy, estetik darajalarda rivojlanishini ta'kidlab o'tdik. Muqaddaslik kodining rivojlanib borishini "*e'tiborga molik*" qadriyatlar tizimi bilan, so'nib borishini esa avval ahamiyatli bo'lib, keyinchalik madaniy omillar ta'sirida "*bee'tibor*" (profan) holatga tushib borayotgan hodisalar ko'rinishida ifodalash mumkin. Masalan, Buxorodagi Hazrati Bahovuddin Naqshband ziyoratgohida ko'p asrlardan beri ziyoratchilar diqqatini o'ziga tortib kelgan, aholi orasida "*Bahovuddin hassasi*" deb nom olgan ulkan tut daraxti olib tashlandi. Endi u "profan"lik belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Barcha davrlarda muqaddaslik va profanlikning tebratishlari u yoki bu diniy-madaniy an'analarning yuksalishi va so'nishi bilan o'z vektorini o'zgartirib turadi. Sotsiolog sifatida ushbu jarayonni tahlil etib ko'raylik. Nazdimizda, bugungi kun kishisi kechagi zamondoshidan mavjud axborotlar ko'lamiga ko'ra ancha ilgari ketdi. Undagi e'tiqodda ko'r-ko'ronalikdan ko'ra ilmiy mushohada baland bo'lishi mumkin. Shunday bo'lmagan taqdirda ham, bugungi zamonaviy ta'lim va fan yutuqlari inson fe'l-atvori va xarakteriga jiddiy ta'sir qila oladi. "Irratsional hodisa belgisi" deb qaralgan. Mamlakatning ziyoratlar turizmini rivojlantirish o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Turizm tarixiy obyektlar, voqealar, hodisa, jarayonlar, predmetlar hisobiga shakllanadi. Birini "bid'at", ikkinchisini "shirk", yana birini "harom", keyingisini "makruh" deya yo'qotib yuboraverilsa, oxir-oqibat "*muqaddaslik*"ning yana boshqa "uyatli" jihatlarini "qidirib" topish va undan voz kechishga majbur qiluvchi "ratsionallik"lar paydo bo'lmasligiga kafolat yo'q. "*Muqaddas joy bo'sh turmaydi*". Uning o'rnini o'zga "jimjimador" madaniyatlar, e'tiqod shakllari (kiyinishdan tortib taomgacha; yuz qiyofasidan ko'z nigohigacha; talaffuzimizdagi so'zlashuv va o'zimizga xos fikrlashimizdan boshlab tafakkurgacha; san'at, musiqa, poeziyadan to arxitekturagacha) asta-sekinlik bilan ekspansiya (egallash) qilib boradilar.

Muammoni fenomenologik psixologiya nuqtayi nazaridan tadqiq etgan mutafakkir, Germaniyaning Marburg universiteti professori R.Otto o'zining "Ilohiy" ("Das Heilige", 1917) deb nomlangan fundamental asarida "har qanday dinning mohiyati kishilarda ilohiylikning "dahshatga soluvchi va mahliyo qiluvchi" munosabatlarini boshdan kechirishidan iborat" [Элиаде 1994, 256] deya ta'kidlaydi. U ilohiy (muqaddaslik)dagi ambivalent psixologik holatni o'rganishga katta ahamiyat qaratadi va unda: a) qo'rquv:

b) ulug'vorlik; v) ilohiy quvvat; g) sir saqlash kabilar ko'rinishida rivojlanib borish bosqichlarini batafsil ta'riflab beradi. R.Ottoning ta'kidlashicha muqaddaslikning irratsional tabiati "ibtido", "ilohiylik", "mukammallik", "abadiyat", "transsendent" (hissiy tajribadan tashqariga chiqib ketish), "yuqori darajadagi hissiyot" (ekstaz, jazava) kabilarga ega bo'ladi. Ottoning fikricha, muqaddaslik diniy qadriyatlar shkalasida oliy qadriyat hisoblanadi.

Qadimgi xalqlar tasavvurida *"muqaddaslik"* – bu uning mukammalligidagi voqelik, bir vaqtning o'zida qudrat, harakat, hayot manbayi va sermahsullikni ifodalagan. Ibtidoiy va qadimiy jamiyatlar uchun *"muqaddaslik"* kuch-qudrat namunasini aks ettirardi. Muqaddaslikdagi qudrat bir vaqtning o'zida voqelikni, mustahkamlik va samaradorlikni anglatga, "ilohiy-dunyoviy" qarama-qarshilikda u ko'pincha real va noreal hodisalarning raqobati sifatida ifodalangan [Otto 2008, 73]. Insoniyat olamida bir-birini mukammal takrorlaydigan qiyofa mavjud bo'lmagani kabi bir xil madaniyat, din va xalqlar ham mavjud emas. Shu bois *"muqaddaslik"* hoh u diniy yoki ijtimoiy bo'lsin, sotsiumda yagona tarzda takrorlanmaydi. Jumladan, o'zbeklar turmush va tafakkur tarzida *"muqaddaslik kodi"*ga aylangan non va non mahsulotlarining juda ko'plab musulmon xalqlarida ahamiyati baland emas. Har bir madaniyatdagi tashqi va ichki shart-sharoitlar ta'sirida muqaddaslik kodining rivojlanishi amalga oshiriladi. Aholi (xalq) jismi va ruhiyatida mavj urib turadigan *"muqaddaslik kodi"*ga aylangan u yoki bu hodisalarning mavjudligidagi eng oliy mohiyat asosan yopiq holda mavjud bo'ladi. Ya'ni, o'zbekning ruhiyatini tushunish uchun xalqning orasida yashash kerak. Yoki rus xarakteriga e'tibor bersak, u to'g'risida shunday mulohaza bor: "Rossiyani aql bilan tushunish qiyin". Demak, ratsionallik o'z o'rnini irratsionallikka bo'shatib beradi.

"Muqaddaslik kodi" insonlar jamoalarida, urug'-aymoqchilikda, ijtimoiy guruhlarda, professional tashkilotlarda, ijtimoiy sinflarda, irqlar, xalqlar va millatlar xarakterida namoyon bo'ladi. *"Muqaddaslik"* – ko'p toifali tushuncha. U diskurs (so'zlashuv jarayoni) tafakkur (ratsional) yordamida emas, balki ko'proq hissiyotlar, iroda va intuitsiya (irratsional)ning maksimal bosimi bilan bog'liq bo'lgan e'tiqod harakati natijasida anglanishi mumkin. Ilmiy anglashdan farqli ravishda *"muqaddaslik"*ni anglash aslida qat'iy tarzda soddadan murakkabga qarab yo'nalganlikni taqozo etmaydi. U asosan sodda, o'z holicha ko'rinishda ifodalanadi. Lekin *"muqaddaslik"*ni ilohiy tarzda anglashga intilish murakkablikni talab

etadi. Chunki u mashaqqatli yo'l va bunda inson ko'p narsalardan voz kechishiga to'g'ri keladi.

Qadriyatlarga asoslangan jamiyatlarda *"muqaddaslik"* aprior, ya'ni tajribaga asoslanmagan holda tabiat in'omlari (muqaddas buloq yoki suv, daraxt, tosh)ni ilohiylashtirish, shuningdek, diniy hissiyotlarda takomillashgan irratsionallikni ilmiy o'rganishlar asosida tafakkur negizi orqali ong faoliyatining ratsional jihatlariga o'tishida kuzatiladi. Uzoq yillik tadqiqotlar mobaynida biz muqaddaslik qadriyatlarining ratsional va irratsional jihatlarini ajratib, sotsiologik tahlilini berishga harakat qildik. Uzoq asrlar mobaynida irratsional mazmundagi muqaddas joy, ziyoratgoh va qadamjoylarni bugungi kunda turizm komplekslariga aytantirish, aholi bandligini ta'minlaydigan infratuzilmani shakllantirish ratsionallikka sabab bo'ladi.

"Muqaddaslik" kategoriyasini sotsiologiyada fenomenologik yondashuv vakili, fransuz tadqiqotchisi Roje Kayua asarlarida ham kuzatish mumkin. U o'zining *"Inson va muqaddaslik"* kitobida muqaddaslikka oid tasavvurlar diniy e'tiqodga ega bo'lgan shaxslarning tafakkurida alohida o'rin tutadi, deya ta'kidlaydi. O'z qarashlarida R.Kayua *"muqaddaslik"* va *"profan"*ni qarama-qarshi qo'yar ekan, muqaddaslikning o'ziga xos ambivalent tabiatini alohida ta'kidlab o'tadi: "Makonda profanni umuman e'tiborga olmaslik mumkin, lekin ayni vaqtda muqaddaslik atrofdagilarni o'ziga jalb qilish, muayyan ko'rinishdagi maftun qilish qobiliyatiga ega holatda mavjud bo'ladi. U mavjud ekan, bir vaqtning o'zida ham "jozibali", ham "qo'rqinchli" xavf demakdir. Qo'rqinchli bo'lish bilan bir qatorda u ehtiyotkorlikni talab etadi; istalgan bo'lish orqali u jasoratga undaydi" [Кайя 2003, 37].

Endi o'zbek tilidagi duolarda *"muqaddaslik kodi"* timsoli-ning ifodalanish xususiyatlariga e'tibor qaratamiz. Yoshlardagi qadriyatlar mo'ljallarining eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri, ularning diniy munosabatlardagi ishtirokida o'z ifodasini topadi. Zamonaviy jamiytdagi O'zbekiston yoshlarining diniy ong va xulq-atvordagi ijtimoiy xususiyatlarini tushunish yoki anglash ma'lum ma'noda qarama-qarshiliklardan tashkil topadi. Bir tomondan, jamiyatda islom dini va uning ta'limoti bilan bog'liq faoliyat oshib borsa, ikkinchi tomondan, dunyoning globallasuvi natijasida diniy qadriyatlarga nisbatan noaniqlilik hamda sekulyarizatsiyaga oid qarashlar mavjudligi kuzatiladi. Shu boisdan ham axborotlashgan jamiyatda yoshlardagi zamonaviy qadriyatlar mo'ljallarining transformatsiyalashuvida turli xil ziddiyatli munozara va bahslar

paydo bo'ladi. "Qadriyatlar mo'ljali individning ijtimoiylashuv va ijtimoiy moslashuv jarayonlarida orttirilgan, shaxslararo tuzilmaning hayotiy tajribasiga jamlangan ichki (dispozitsion) element hisoblanadi. U shaxsning o'zi tomonidan qaysidir bir ramkaga solingan ma'lum qadriyatlarni qabul qilib olishida qaysidir muhimlik (ma'lum bir shaxs uchun muhim bo'lgan)ni ko'rsatishda ahamiyat kasb etuvchi, ammo ahamiyatsizlik (ahamiyatsiz)ni ifodalovchi bilan uni qabul qilmaslik o'rtasidagi chegaralarni mavjud ijtimoiy hayotning tom ma'nodagi asosiy maqsadlari sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, ushbu dixotomiya qadriyatlar mo'ljali amalga oshirishning maqbul vositalarini belgilaydi" [Мухин 2006, 256].

2019-yili boshlangan COVID-19 Pandemiyasi, keyinchalik global makonda urush o'choqlari maydonining kengayib ketishi va mazkur manzaralarning axborotlashgan jamiyatda asosiy bahs makoniga aylanishi o'zbek jamiyatining ham e'tiboridan chetda qolmadi. Mamlakat kundalik hayoti va turmush tarzida kutilmagan yangicha mazmun kasb etuvchi qadriyatlar mo'ljali va identiklikning transformatsiyalashuvi vujudga keldi. Tabiiyki bunday keskin o'zgaruvchanlik va mobillashuvda 2016-yilning so'nggi dekasida sodir bo'lgan davlat va hukumat boshqaruvdagi siyosiy o'zgarishlarning ham ta'siri sezilarli bo'ldi.

So'nggi yillarda O'zbekiston sharoitida qadriyatlar mo'ljaliga oid yirik hajmdagi jiddiy sotsiologik tadqiqotlar kuzatilmadi, mavjud tayyorlangan ilmiy ishlar va yozilgan maqolalarda esa MDH doirasidagi tadqiqotlarga hamohang fikr-mulohazalar ko'p uchraydi. Talabalarga ma'ruza o'qish, telegramm guruhlari va ijtimoiy tarmoq sahifalariga a'zo hamkasblardan "o'zbek xalqining bugungi kundagi 10 ta qadriyatlarini sanab bering" qabilidagi savollar bilan murojaat qilinganda, kutilgan javoblarni ololmadik. Insonning hayoti va faoliyati davomida ma'noli yashashi uchun quvonch ulashuvchi barcha manzaralar oxir-oqibatda qadriyatga aylanishi mumkin. Qadriyat atamasi va uni shakllantiruvchi g'oyalar bir qarashda o'zaro hamohang mazmun kasb etayotgandek bo'lishi mumkin, lekin, u aslida bunday bo'lolmaydi. Qachonki, g'oya o'zining betaraf (neytral) mazmun kasb etishi (turli mazmundagi mafkuraviylikdan holi)dan tashqari, uni amalga oshirishga bo'lgan umuminsoniy istakni ham o'zida mujassam etgan taqdirda qimmatli mazmun kasb etishi mumkin. Lekin, paradoksli, ya'ni bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi holatlar turmush tarzimizning qismi sifatida paydo bo'lib, nimagadir erishganimizda, u biz uchun o'z ahamiyatini yo'qotib

qo'yishi va unga bo'lgan qiziqishimiz birdan unutilishi mumkin. Qadrli, yoki qadriyatga aylangan voqelik esa, aksincha, namoyon bo'lish bilan o'zidagi munosib sifatlarni yo'qotmaydi, u istiqbol uchun ishonchli ko'rinadi, ijtimoiy hayotning har bir yangilangan jabhalarida harakatlarni ro'yobga chiqishi, amalga oshishi uchun yuksak tuyg'u yoki kechinmaga aylanib boradi. Shunday bo'lsa-da, qadriyatlar mo'ljalining amalga oshishida jamiyat tomonidan ma'lum darajadagi o'ziga xos yondashuvlar amalga oshirilib boriladi. Ba'zida u to'liq ilmiy mazmun kasb etishni talab etadi. Shu boisdan, OAV ma'lumotlari, universitetlarning ilmiy konferensiya va seminarlaridagi munozara va davra suhbatlarida yoshlarning qadriyatlar mo'ljaliga oid ko'tarilayotgan masalalar hamma vaqt ham ayni haqiqatga mos tushavermaydi. Yoshlarning qadriyatlar mo'ljali fokusini aniqlash uchun o'ziga xos yondashuvlarga ehtiyoj seziladi.

Yuqorida ta'kidlaganimiz, COVID-19 pandemiyasi qadriyatlar mo'ljalining o'zgarishida sezilarli rol o'ynadi. Milliy hamda fuqarolik identiklik fonida diniy identiklikning roli qadriyat va e'tiqod ramzi sifatida yuqori tezlikda oshib bordi. Tabiiyki, pandemiya juda ko'p ijtimoiy muammolar bilan birgalikda, kutilmagan o'limlarni ham taqdim etdi. O'limlar darajasining pandemiya sharoitida oshib ketishi ham diniy identiklikning ustuvorligini oshishiga zamin yaratdi.

O'zbeklar qadriyatlari bilan bog'liq ma'lumotlarni o'rganish jarayonida, asosan turli xil tadbir va marakalarning ahamiyati alohida o'rin tutadi. Har qanday diniy, milliy, shuningdek, kundalik hayotdagi eng oddiy tadbir, maraka, faoliyatning boshlanishi va yakuni "duo" o'qish bilan alohida mazmun kasb etadi. Bizningcha, Markaziy Osiyoning turmush tarzi bir-biriga yaqin beshta musulmon davlatlari aholisi ijtimoiy-madaniy xulq-atvorida bu holat oddiy hol hisoblanadi. Yoshlarning qadriyatlar mo'ljali nimalarda o'z aksini topishi mumkin, degan savolni oldimizga qo'yar ekanmiz, bevosita kuzatishlarda duolarning o'zbek yoshlari qadriyatlar mo'ljalini olishdagi zamonaviy xususiyatlari qaysidir darajada o'z o'rnini topishi mumkinligiga guvoh bo'ldik. Ta'kidlash mumkinki, qaysidir "yopiqlik" mavjud bo'lgan shart-sharoitlardagi ilmiy tadqiqotlarda o'z mazmun-mohiyatini topolmayotgan qadriyatlar mo'ljalini parallel dunyodagi sotsiomadaniy xususiyatlardan izlash mumkin.

"Duo"lar har bir o'zbek xonadonida har kuni kattalar tomonidan doimiy ravishda o'qilib, yakunida yuzga fотиha tortiladi.

Bu musulmonchilikning belgisi sifatida diniy identiklikning bir shakli hisoblanadi. Uni masjid imom-xatibidan tortib, eng oddiy insongacha yosh darajasiga qarab kattalar tomonidan kichiklarga qarata o'qib yetkaziladi. Tadqiqotchi sifatida razm solib, unda biz quyidagi eng asosiy qadriyat mo'ljalining ifodasini tizimli ravishda tartib bilan shakllantirdik. Yaratuvchiga muhabbat va e'tiqod, ota-onaga muhabbat, oilaning mustahkamligi va unga sadoqat, sabr-bardosh, tinchlik-xotirjamlik, sihat-salomatlik, yaxshi ta'lim va ish joyi, farzandlar rohatini ko'rish, safar (migratsiya)da yurganlarning ishlariga rivoj, el-yurt tinchligi, podishoh va rahbarlarga insof, qarindosh-urug'lar o'rtasida g'am va qayg'u bo'lmasligi kabilar duolar o'qilishi jarayonida doimiy takrorlanadi. "Oltin olma duo ol – duo oltin emasmi?", deyishadi yoshi ulug' insonlar. Har qanday duoda inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazuvchi ijobiy jihatlar namoyon bo'lishi hamda uning kishilar, birinchi navbatda, yoshlar ongi va qalbiga singdirilib borilishi, vaqtlar kesimida qadriyatlarga aylanadi.

Qiziqishlarimizning asosiy tadqiqot obyektni axborotlashgan jamiyatda yoshlarning qadriyatlar mo'ljali tashkil etgani bois uning asosiy mazmuni 1990-2004-yillar ichida tug'ilgan Y avlod (milleniallar) va 2005-2015-yillarda tug'ilgan Z avlod (zumerlar, yoki "zet"lar) turmush tarzi, ijtimoiy qiyofasi va dunyoqarashi masalalariga bag'ishlanadi. Avlod munosabatlarini tahlil etish, sotsiologiyada O.Kont va J.Millarga tegishli bo'lib, ular avlodlar almashinuvini tarixni harakatga keltiruvchi kuch sifatida qaraydilar. Nemis sotsiologi V.Diltey shaxs ijtimoiylashuv (sotsializatsiya) jarayonida yosh darajasi muhim ahamiyat kasb etishini biologik va sotsial omillarga bog'lab, uni quyidagi ko'rsatkichlarda olib qarashni tavsiya etadilar: 15 yosh, 30 yosh va 33 yosh, aynan shu yosh ko'rsatkichlari yoshlikni belgilovchi davr bo'lib, undan keyin esa organizmda avlodning yetuklik davridagi almashinuv jarayoni kechadi [Дилтей 2000, 73].

"Duo"larga to'xtalishimizning asosiy omillaridan biri shundaki, jamiyatning asosini tashkil etadigan (65 % gacha) yoshlarning har ikki kategoriyasi, ya'ni "Y" va "Z" avlodlarda diniy identiklik darajasi ustuvorlik qilib, ular har bir ishni boshlash, yoki amalga oshirishda "duo"larga murojaat qilishadi. "Duo" olish uchun qaysidir bir diniy ulamo, ota-ona, ustoz, biror-bir yoshi ulug' kishi, e'tiqodli-taqvodor inson, "Haj" yoki "Umra" safarini bajargan hojilarga ko'proq murojaat qilinadi. O'zbekiston aholisining qariyb 95 % islom diniga e'tiqod qilishi, musulmon udumlari va marosimlarini to'liq ado etishligi, shuningdek, unga milliy urf-odatlarining

uyg'unlashuvini hisobga olgan holda, ta'kidlash mumkinki, "duo"lar kundalik hayotning eng muhim qismiga aylandi. Duo beruvchilar ham va duo oluvchilar ham yuzlariga fotiha tortar ekanlar, duoning ijobat bo'lishini "Yaratgan"dan iltijo qilib so'raydilar.

Duolarda insoniy qadriyatlar

Ilmiy nuqtayi nazardan aytadigan bo'lsak, duolarda aytilgan tilaklar kishining ongi va qalbiga ijtimoiy hayotda yashash va faoliyat yuritish uchun "qadrli" mo'ljal sifatida mahkam o'rnashib qoladi. Shulardan kelib chiqib, biz o'z ma'ruzamizda yoshlardagi qadriyatlar mo'ljalini aynan duolardan qidirdik va uning bugungi kundagi eng muhim jihatlarini ijtimoiy, madaniy, diniy va iqtisodiy omillarda transformatsiyalashuv jarayonlarini kuzatdik. O'zini o'zi namoyon etish (samorealizatsiya), diniy va dunyoviy omillar o'rtasidagi uyg'unlilik, iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlarni oshirish, yoki yaxshilash uchun mobillik (migratsiya)ning turli shakllarda ortib borishida axborotlar almashinuvining roli katta bo'lmoqda. O'zbek ijtimoiy tarmoqlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy mavzulardan tashqari, diniy mulohazalarga ham alohida o'rin berilganligi bois unda keltirilgan fikr-mulohazalar yoshlarning qadriyatlar mo'ljalini olishda muhim o'rin tutmoqda. Demak, "duo"larni kuzatish va uning ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ta'siri asosida, biz yoshlar mo'ljalini ifodalovchi quyidagi 10 ta qadriyatlar tizimini aniqladik:

1) iymon-e'tiqod va insof; 2) ota-onani e'zozlash; 3) oila va tarbiya masalalari; 4) sabr-bardoshlilik (terpimost); 5) sihat-salomatlik; 6) tinchlik-xotirjamlik; 7) o'zini o'zi namoyon etish, so'z erkinligi (barcha orzu istak va xohish-irodaning amalga oshishi yoki postmaterializm); 8) sifatli ta'lim (ko'p tillilik); 9) dunyoni ko'rish va yurt kezish (turizm, xorijiy ta'lim, migratsiya, musofirchilik); 10) pragmatizm (jamoaviylikdan asta-sekin individualizm sari).

Endi ma'ruza (doklad)mizda ushbu 10 ta qadriyatlar mo'ljaliga qisqacha izoh berib o'tamiz. Iymon va insof masalasi koronavirus pandemiyasidan keyin yoshlarning ongi va tafakkurida o'zgacha bir burilishni shakllantirdi. Yoshlardagi diniy faollikni faqat koronavirus pandemiyasi bilan bog'lash noo'rin bo'lardi. Mustaqillikning birinchi 30 yilligi davomida din va diniy munosabatlarning ma'lum darajada chegaralanishi, ta'qiq va bosimlar unga nisbatan bo'lgan qiziqishlarni yillar kesimida oshirib borardi. 2016-yili ijtimoiy-madaniy va siyosiy-huquqiy jarayonlarda boshlangan islohotlar tabiiyki, diniy omilni ham chetlab o'tmadi. Din

ulamolari va diniy institutlarga keng imkoniyatlar berilishi, arab tili kurslarining maktab va turli o'quv markazlarida o'qitilishiga joriy etilishi ijtimoiy hayotda "musulmonchilik" obrazining butunlay yangi mazmundagi transformatsiyasini vujudga keltirdi.

"Ota-onaga bo'lgan hurmat va ehtirom" masalasi nafaqat o'zbeklarda, balki butun Markaziy Osiyo xalqlarida azaldan, shuningdek, yaqin o'tgan davrlar ichida ham eng muhim qadriyatlardan biri sanalgan. Lekin, bugungi kunga kelib ota-onani e'zozlash qadriyati milliy identiklik ruhiyatidan diniy identiklik ruhiyatiga transformatsiyalashdi. Ota-onalarni qadrlash yoshlar tafakkurida materializm sifatida ularning sog'ligi, yaxshi yeyish va davolanishni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, so'nggi yillarda o'ziga xos postmaterializm sifatida yoshi ulug' insonlarni "Haj" va "Umra" safarlariga olib borish yoki yuborish omili orqali ijtimoiy hayotda yangicha "ijtimoiy maqom"ga ega bo'lishlik bilan transformatsiyalashdi. Saudiya Arabistoni Qirolligi tomonidan "Haj" va "Umra" uchun keng imkoniyatlar yaratilishi, mavjud to'siq va ta'qiqlarning olib tashlanishi "ota-onaga bo'lgan hurmat va ehtirom" qadriyatini postmaterializmning yangicha ko'rinishlarini qo'llash yordamida islom qoida (kanon)lari asosiga identiklikning umuman o'zga rusumlarini shakllantirdi.

Bugungi kunning o'ta dolzarb va muammoli masalalaridan biri sifatida "oilaviy tarbiya masalalari" qolmoqda. OAV, hukumat qarorlari, ijtimoiy tarmoqlar va ta'lim muassasalarida eng munozarali mavzuga aylangan oilaviy mavzusi haqiqiy ijtimoiy muammoga aylandi. Oilaviy tarbiyada avval farzand tarbiyasi eng muhim masala hisoblangan bo'lsa, diniy munosabat va jarayonlarning axborotlashgan jamiyatda faollashuvi hisobiga "oilaviy ayolning o'rni va tarbiyasi masalasi" ijtimoiy tarmoqlar, diniy ma'ruzalarining asosiy munozarasiga aylanib qoldi. Bu jamiyat ahli uchun axborotlar olamida kutilmagan chaqiriq edi.

Ushbu mavzu milliy qadriyatlar tizimida ham mavjud bo'lib, hech qachon oshkor etilmagan va yopiq masala sifatida turgan. Bir tomondan gender tengligi masalasi, ikkinchi tomonda esa islomda ayolning o'z turmush o'rtog'iga bo'ysunishi ba'zida "farz", ba'zida "sunnat" sifatida ijtimoiy tarmoqlarda ko'tarilishi, ta'kidlaganimizdek, kutilmagan ikkilanishlarga olib keldi. To'liq ishonch bilan aytish mumkinki, jamiyat bunga tayyor emasdi. Ayniqsa, ushbu muammo poytaxt Toshkent shahrida o'ta murakkablashib ketdi. Oilaviy ajrimlar juda qisqa fursatlar ichida geometrik progress asosida oshib bordi. Mavjud qonunchilikka zid

ravishda ayrim hududlarda “shar’iy nikoh” asosidagi ko’pxotinlilik ko’paya boshladi. Bu esa o’z navbatida bolalar orasida yashirin yoki yopiq tarzdagi ruhiy bosim va zo’riqishlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Balki bu kabi hodisalar bugungi musulmon Markaziy Osiyosi davlatlari uchun ham xos bo’lishi mumkin. Agar shunday bo’lsa, biz buni jiddiy ijtimoiy chaqiriq sifatida qabul qilishimiz kerak. Bugungi yoshlar bir vaqtning o’zida milliy-an’anaviy, diniy va global chaqiriqlarning girdobida qiyin tanlovga ega bo’lgan dunyoqarashni boshidan kechirmoqda.

Biz tomonimizdan to’rtinchi o’ringa qo’ygan qadriyat tizimini “sabr-bardoshlilik” va “sabr-qanoat” so’zlari bilan izohladik. Bugungi kunda ijtimoiy hayotda ham duolarda bo’lgani kabi “sabr” eng ko’p ishlatiladigan atamalardan biri hisoblanadi. Nafaqat mahalliy tadqiqotchilar, balki xorijlik olimlarning tadqiqot ishlari-da ham o’zbeklardagi sabr masalasi ko’p yoritiladi. Duolarda sabr so’zi eng ko’p va doim ishlatiladigan atama sanaladi. Axborotlashgan jamiyatda jarayonlarning yuqori tezlikda faollashuvi, ijtimoiy hayot me’yorlarining murakkablashuv tizimiga har doim insonlar yetib ulgurmayapti. Duolarda bir soha yoki kasbni o’zlashtirish uchun sabr so’ralsa, ikkinchi holatda ishi yurishmayotgan damlar uchun, oilaviy muammolar kuchayib ketayotgani uchun, og’ir betob bo’lib qolganlik, atrof-dan bosimlar kuchayib ketganda insonlar, ayniqsa, yoshlar sabrli bo’lishga chorlanadi. Sabr-bardoshli bo’lishga chaqiriqlar o’zbek jamiyatida hamma vaqt alohida o’rin tutgan. Sabr orqali shaxs o’z vaqtining kelishi va u ijobiy yakun topishiga ishonadi. Sabrning mohiyatini tadqiqot ishlarida turlicha talqin qilish holat-lari mavjud.

“Sihat-salomatlik” deb nomlagan keyingi omilni navbatdagi qadriyatlar mo’ljaliga kiritdik. Tibbiyot sohasidagi doimiy reklamalar, sog’lom turmush tarzini targ’ib etuvchi axborot va ma’lumotlar, qolaversa, ta’kidlaganimiz koronavirus pandemiyasi insonlarni, tabiiyki yoshlarni ham o’z sog’liklariga nisbatan befarq qaramaslikka o’rgatmoqda. Shunday bo’lsa-da, aytish joizki, bugungi kunda faqat biologik omillardan tashqari psixologik jihatlar dolzarb masalaga aylanmoqda. Ijtimoiy hayotdagi keskin raqobatbardoshlik, ko’p holatlarda kelajakka nisbatan umidsizlik, bandlik muammosi, tartibsiz va o’ta murakkab migratsiya jarayonlari stress va depressiv ijtimoiy kasalliklar miqdorini oshirib bormoqda. Ko’plab ijtimoiy kasalliklar: qandli diabet, infarkt, insult, yoki onkologiya kasalliklarining yillar kesimida asta-sekinlik bilan yosharib borishi holatlarining kuzatilishi, tabiiyki, davrimizning xavotirli ijtimoiy

masalasi hisoblanadi. Shuningdek, noto'g'ri ovqatlanish, turli xil energetik va gazli ichimliklar, internet o'yinlariga qaramlilik ham bugungi yoshlarning sihat-salomatligida jiddiy rol o'ynaydi.

Biz kuzatishlarimizda insonlar, shu jumladan yoshlar uchun ham "tinchlik-xotirjamlik" masalasi asosiy qadriyatga aylanganligini e'tirof qilmoqchimiz. Agar duolarda ushbu atamaning aytilishi va talaffuziga e'tibor qiladigan bo'lsak, uni ko'pincha duo beruvchilar nafasni chuqur rostlagan holda, "pauza" bilan aytilishiga shohid bo'lamiz. "Oilangiz va ish joyingizda tinchlik-xotirjamlik bo'lsin". Turk shoiri Nozim Hikmatdan "Baxt – deganda nimani tushunasiz", deb so'raganlarida, u o'ylab turib shunday javob bergan ekan: "Baxt – bu ertalab uyg'onganingda ish joyingga xursand bo'lib borish uchun shoshilish va ish vaqti tugagach, uyingga shoshilib, xursand bo'lib qaytish". Bu yerda boshqa hech qanday izohga hojat bo'lmasa kerak. Raqobatli, doimiy va tez-tez uchrab turadigan bugungi nizoli vaziyatlar, bandlik masalasi bilan bog'liq yechimlarni hal etishda, yoshlar uchun "tinchlik-xotirjamlik" masalalari asosiy qadriyatlardan biriga aylandi.

O'zini o'zi namoyon etish, so'z erkinligi (barcha orzu istak va hohish-irodaning amalga oshishi, yoki postmaterializm) masalalari butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekiston yoshlarining ham axborotlashgan jamiyatda faollashtirdi. Ko'p tilli bo'lishga intilish, IT dasturchisi kasbini o'zlashtirishga harakatlar, bloggerlik zamonaviy yoshlarning asosiy qiziqishlarini ifodalaydi. Shuningdek, bugungi yoshlarda koronavirus pandemiyasidan keyin Z avlod (zumer)ga mansublarda arab tilini o'rganish, Qur'oni Karimni yodlash, qori va qoriya bo'lishga xohish-istak oshib bormoqda.

Sifatli ta'lim olish bugungi yoshlarning asosiy qadriyatlaridan biriga aylangan. 2016-yilgacha O'zbekiston Respublikasida bor-yo'g'i 56 ta oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, unga har yili 59 ming, yoki maktab bitiruvchilarining 9 % qabul qilingan bo'lsa, bugungi kunda davlat va nodavlat universitetlarning soni 211 taga yetdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, maktab bitiruvchilarining 22-25 % oliy ta'limga qamrab olinmoqda. Shuningdek, 10 minglab yoshlar dunyoning turli mamlakatlaridagi universitetlarga sifatli ta'lim olish uchun ketmoqda. Ta'limni yuqori sifat darajasiga olib chiqish bugungi kunda davlatning eng dolzarb, strategik masalalaridan biriga aylangan. Tan olib aytish kerak, juda ko'plab soha va mutaxassisliklar bo'yicha malakali kadrlar taqchilligi kuzatiladi. Raqobatbardosh dunyoda yoshlarning ham o'zlari, ham jamiyat oldiga qo'yayotgan jiddiy talablaridan biri – bu sifatli ta'lim

berilishi talabi bo'lib qolmoqda.

Dunyoni ko'rish va yurt kezish (turizm, xorijiy ta'lim, migratsiya, musofirchilik) duolarda ko'p ishlatilib, u "musofirchilik" timsolida gavdalanadi. Bugungi kunda o'zbek yoshlarini dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida ko'rish mumkin. U turist, talaba, malakali ishchi, mehnat migranti va hatto o'zi tashrif buyurgan mamlakatning fuqarosi sifatida gavdalanishi mumkin. Aholisi 36,5 mln.ga yaqinlashgan bugungi O'zbekistonda demografik o'sish juda yuqoriligicha qolmoqda. 2022-yil mamlakatda 932 192 ta chaqaloq dunyoga keldi. 2023-yili o'rta maktablarning 1-sinfiga 730 mingta o'g'il-qiz bordi. Qiyoslash uchun qo'shni mamlakatlar bilan solishtirsak, bu ko'rsatkich Qozog'iston Respublikasida 410 mingta, Qirg'iziston Respublikasida 186 mingta, Tojikiston Respublikasida 220 mingta, Turkmaniston Respublikasida 160 mingta va Mongoliyada 75 mingtani tashkil etadi. Statistik ma'lumotlardagi o'ta yuqori farqlardan ham xulosa qilish mumkinki, yillar kesimida yoshlarning migratsiya jarayonlaridagi ishtiroki faqat faollashib borishi mumkin. U endi butunlay yangi mazmunda, globallashtirgan dunyo omillariga bog'liq ravishda transformatsiyalashadi.

Pragmatizm (jamoaviylikdan asta-sekin individualizm sari) Y va Z avlodlar dunyoqarashida ustuvor qadriyatga aylanib bormoqda. O'zlikni namoyon etish, har qanday sharoitda ham foyda ko'rish uchun intilishlar yoshi katta avlodlarga nisbatan o'zgacha mazmun kasb etadi. Internet tarmoqlariga bog'liqlik yoki qaramlilik ularning dunyoqarashiga sezilarli tarzda ta'sir o'tkazadi. Moliyaviy imkoniyatlar orqali muammolarni hal etish mumkinligi to'g'risidagi xulosalarga tayaniladi. Milliy urf-odat va an'analardagi ko'p xususiyatlar ushbu avlodlar vakillari o'rtasida tushunmovchilik yanglig' qabul qilinadi. Jumladan yosh avlod katta avlodlarning mehnatga nisbatan jamoaviy ko'mak ko'rsatish munosabatlarini noto'g'ri tushunadi. Yuz yillar mobaynida shakllangan "hashar" mehnat tizimi shart-sharoitlar doirasida "majburiy mehnat" sifatida tasavvur uyg'otishi mumkin.

Xulosa

Umuman olganda, bugungi yoshlardagi qadriyatlar tizimini shakllanishida diniy omil ayni damda ustuvorlik qilmoqda. Juda ko'p holatlarda diniy identiklik "arab" bo'lishga intilishlik kabi jihatlarni namoyon etishgacha borib taqalmoqda. Hozir ayni damdagi qadriyatlar mo'ljalining transformatsiyalashuvi shu holatda namoyon bo'lmoqda. O'ylaymanki, jamiyatda olib borilayotgan islohotlar, ilmiy loyihalar va xalqaro hamjamiyat bilan o'zaro

uyg'unlashish yuqori darajaga chiqib borar ekan, yaqin yillar ichida butunlay o'zgacha qadriyatlar transformatsiyalashuvini kuzatish mumkin.

Adabiyotlar

- Бабосов, Е. 2023. "Культурный код нации: сущность и особенности". *Журнал Белорусского государственного университета. Социология*. 2: 9–13.
- Дилтей, В. 2000. *Введение в науки о Духе*. Москва.
- Дюркгейм, Э. 1998. *Элементарные формы религиозной жизни*. В кн. *Мистика. Религия. Наука. Классики мирового религиоведения. Антология*. Москва: Канон.
- Ильченко, В.И., Шельюто, В. М. 2016. *Духовная культура в пространстве сакрального*. СПб: Изд-во «Ъ», Луганск: ООО «Пресс-экспресс».
- Элиаде, М. 1994. *Священное и мирское*. Пер. с фр. Н. К. Грабовского. Москва: Изд-во МГУ.
- Отто, Р. 2008. *Священное. Об иррациональном в идее божественного и его соотношение с рациональным*. Изд-во Санкт-Петербургского университета.
- Осипова, Е.В. 1977. *Социология Эмиля Дюркгейма*. Москва: Наука.
- Otto R. 1923. *The Idea of the Holy*. London; Oxford. Хабермас, Ю. 2016. Структурное изменение публичной сферы. Исследования относительно категории буржуазного общества. Москва: Изд-во. «Весь мир».
- Редклифф-Браун А.Р. 2001. *Структура и функция в примитивном обществе*. Очерки и лекции. Москва: «Восточная литература» РАН.
- Топоров, В. Н. 1995. *Святость и святые в русской культуре*. Т. 1: Первый век христианства на Руси. Москва: «Яз. рус. культуры».
- Малиновский, Б. 1998. *Магия, наука и религия*. Пер. сангл. А.П.Хомик; под ред. О.Ю.Артёмовой. Москва: Рефл-бук.
- Мухин, А.А. 2006. *Поколение 2008: наши и не наши*. Москва: Изд-во Алгоритм.
- Виндельбанд, В. 1995. *Прелюдии: философские статьи и речи*. Избранное: Дух и история.
- Кайуа, Р. 2003. *Миф и человек. Человек и сакральное*. Москва.

Sociological Interpretation of the Expression of the Symbol of Holiness in Blessings in the Uzbek Language

Komil Kalanov¹

Abstract

In the article, the author compares the symbol of "prayers", which have a special place in religious relations, through the category of "sanctity". In explaining the problem, sociological theoretical-methodological concepts are described directly with the data of field research results. Also, the social characteristics of the sanctity of prayers in periodic indicators and its transformation into an information society are analyzed from the position of a sociologist. As the prayer is raised as a "code of sanctity", the author puts forward the issue of applying its object of research not only to the religious content, but also to the modern informed society as a problem with its philosophical, anthropological, aesthetic, psychological, linguistic and historical features. The theories of symbolic interactionism, structuralism and systematic approaches form the theoretical-methodological basis of the problem. In general, socio-cultural aspects of prayers in the form of a social symbol of sanctity in a changing society, transforming from traditional to modern, are brought to the attention of researchers for comprehensive consideration.

Key words: *prayers, holiness, values, folklore, thinking, consciousness, emotion, sociology of religion, mysticism, myth, value, culture, rituals.*

References

- Babosov, Y. 2023. "Kulturniy kod natsii: sushnost i osobennosti". *Jurnal Belorusskogo gosudarstvennogo universiteta. Sotsiologiya*. 2: 9–13.
- Diltey, V. 2000. *Vvedenie v nauku o Duxe*. Moskva.
- Dyurkgeym, E. 1998. *Elementarnie formi religioznoy jizni*. V kn. *Mistika. Religiya*. Nauka. Klassiki mirovogo religiovedeniya. Antologiya.

¹Komil K. Kalanov – Candidate of Sociological Sciences, Professor, National University of Uzbekistan.

E-mail: komiljon@yandex.ru

ORCID ID: 0009-0009-2344-1814

For citation: Kalonov, K.K. 2023. "Sociological Interpretation of the Expression of the Symbol of Holiness in Blessings in the Uzbek Language". *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 108 – 131.

Moskva: Kanon.

- Ilchenko, V.I., Shelyuto, V. M. 2016. *Duxovnaya kultura v prostranstve sakralnogo*. SPb: Izd-vo «'», Lugansk: OOO «Press-ekspress».
- Eliade, M. 1994. *Svyashennoe i mirskoe*. Per. s fr. N. K. Grabovskogo. Moskva: Izd-vo MGU.
- Otto, R. 2008. *Svyashennoe. Ob irratsionalnom v idee bojestvennogo i yego sootnoshenie s ratsionalnim*. Izd-vo Sankt-Peterburgskogo universiteta.
- Osipova, Ye.V. 1977. *Sotsiologiya Emilya Dyurkgeyma*. Moskva: Nauka.
- Otto R. 1923. *The Idea of the Holy*. London; Oxford. Xabermas, Yu. 2016. *Strukturnoe izmenenie publichnoy sferi. Issledovaniya otnositelno kategorii burjuaznogo obshestva*. Moskva: Izd-vo. «Ves mir».
- Redkliff-Braun A.R. 2001. *Struktura i funktsiya v primitivnom obshestve*. Ocherki i leksii. Moskva: «Vostochnaya literatura» RAN.
- Toporov, V. N. 1995. *Svyatost i svyatie v russkoy kulture*. T. 1: Perviy vek xristianstva na Rusi. Moskva: «Yaz. rus. kulturi».
- Malinovskiy, B. 1998. *Magiya, nauka i religiya*. Per. sangl. A.P.Xomik; pod red. O.Yu.Artyomovoy. Moskva: Refl-buk.
- Muxin, A.A. 2006. *Pokolenie 2008: nashi i ne nashi*. Moskva: Izd-vo Algoritm.
- Vindelband, V. 1995. *Prelyudii: filosofskie stati i rechi*. Izbrannoe: Dux i istoriya.
- Kayua, R. 2003. *Mif i chelovek. Chelovek i sakralnoe*. Moskva.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki"

shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

VII. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

VIII.1. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya" ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Маматов 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VIII.2. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8. Toshkent.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “The Chicago Manual of Style, 16th Edition” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: language and culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of *The Chicago Manual of Style*, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: *Title of the Book*. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified “down” style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, “Author’s own” translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of *University of Chicago Readings in Western Civilization*, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a

chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE

Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald's 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan 0936-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 30.09.2023-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.